



O'ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI UNIVERSITETI
UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY



KOMPARATIVISTIKA COMPARATIVE STUDIES

ILMIY JURNALI



MAQOLA TALABLARI

1-TOM 3-SON

ISSN 3060-4559

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



“KOMPARATIVISTIKA” ILMIY-ELEKTRON JURNALI

1-TOM 3-SONI

“COMPARATIVE STUDIES” SCIENTIFIC E – JOURNAL

VOLUME 1 ISSUE 3

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.13208042>

ISSN 3060-4559

Toshkent – 2024

TAHRIRIYAT KENGASHI



Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

rector@uzswlu.uz



Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, akademik

tsuull@navoiy-uni.uz



Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, filologiya fanlari nomzodi, professor

rector@tsuos.uz



Nazmi Ağıl

Koch universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

nagil@ku.edu.tr



Fesun Koşmak

Eskishehir Osmangazi universiteti,
filologiya fanlari doktori, professor

fesuna@yahoo.com



Ahmet Cuma

Selçuk universiteti, filologiya fanlari doktori,
professor

ahmetcuma@selcuk.edu.tr

TAHRIRIYAT HAY'ATI



Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya
fanlari doktori, professor, "Komparativistika"
(Comparative Studies) nomli ilmiy-metodik
elektron jurnal bosh muharriri

gulnoz7410@mail.ru



Yusupov Otabek Yakubovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy ishlar
va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

o.yusupov@uzswlu.uz



Muhibova Ulfatxon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
filologiya fanlari doktori, professor



Karimov Bahodir Nurmetovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti, filologiya fanlari doktori,
professor

karimovbahodir@navoiy-uni.uz



Hamdamov Ulug'bek Abduvaxobovich

O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti, filologiya fanlari doktori,
professor

ulugbek1968.68@gmail.ru



Jo'raqulov Uzoq Haydarovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari doktori,
professor

juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz



Qosimov Abdug'opir Abdikarimovich

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori,
professor





Xajiyeva Feruza Melsovna

Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari
doktori, dotsent

f.m.xajiyeva@buxdu.uz



To'raeva Bahor Bahriddinovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya
fanlari doktori, dotsent

bahorturaeva@gmail.com



Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

Urganch davlat universiteti filologiya
fanlari nomzodi, dotsent

filolograhimova@726gmailcom



Sabirova Zebo Zokirovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

zebonur2017@gmail.com



Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
mustaqil izlanuvchisi,
tahririyat kotibi.

shaxnozayuldoshova1991@gmail.com

MUNDARIJA

ADABIYOT VA TIL NAZARIYASI

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi. Sharq epik she'riyatida sayyor sevgi qissalarining badiiy sintezi.....	8
Turobov Jaxongir Ravkat o'g'li. Ingliz tilini o'qitish jarayonida transport sohasiga oid terminlarni tadbiq etish usullari.....	18

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Yehong ZHANG, Gerxard Lauer. Kirish: Madaniyatlararo o'qib tushunish.....	29
Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna, Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna. Adabiyotshunoslikda qiyosiy tadqiqotlar: metod va metodologiya.....	40
Sonya Stojmenska-Elseker. Qiyosiy adabiyot, (qiyosiy) madaniyatshunoslik, estetik tarbiya va gumanitar fanlar.....	58

JAHON ADABIYOTI

Muxammedova Nilufar Eliboyevna. Mo'jizaviy realizm amerika adabiyoti talqinida.....	75
Dilnavoz Murodova Nizamovna. Fenimore Kuperning "Ko'n paypoq ertaklari" asarida ideallashtirilgan hindu ayollari.....	83
Kadirova Durdona Dilshadovna. Margaret Etvud "Adams" trilogiyasida diniy, siyosiy va ekologik mavzular tasviri.....	97
Sadullayeva Nazokat Kuvondiq qizi. Sharlotta Gilman Perkinsning "Sariq devor gulqog'ozi" hikoyasida ruhiy kasallik tasviri.....	108
Nazarova Rayxon Shavkatovna. Xilari Mantel ijodi: Tarix va "Ayol nasri".....	117

СОДЕРЖАНИЕ

ТЕОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ И ЯЗЫКА

- Салохи Дилором Исамиддин кызы.** Художественный синтез поэм о любви в восточной эпической поэзии.....8
- Туробов Жахонгир Равкат ўгли.** Проблемы реализации терминов, связанных с транспортными путями, в процессе обучения английскому языку.....18

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

- Йехун Цзан, Герхард Лауэр.** Знакомство: Кросс-культурное чтение.....29
- Халлиева Гульноз Искандаровна, Юлдошова Шахноза Азимбоевна.** Сравнительное литературное исследование: метод и методология.....40
- Соня Стойменска-Эльзесер.** Компаративная литература, (сравнительная) культурология, эстетическое воспитание и гуманитарные науки.....58

МИРОВАЯ ЛИТЕРАТУРА

- Мухаммедова Нилуфар Элибоевна.** Магический реализм в контексте американской литературы.....75
- Дилнавоз Муродова Низамовна.** Идеализированные индийские женщины в «Сказках о кожаных чулках» Фенимор Купер.....83
- Кадирова Дурдона Дилшадовна.** Религиозные, политические и экологические темы в трилогии «Адамс» Маргарет Этвуд.....97
- Садуллаева Назокат Кувондик кизи.** Анализ изображения психического расстройства в рассказе Шарлотты Перкинс Гилман “Жёлтые обои”.....108
- Назарова Райхон Шавкатовна.** Творчество Хилари Мантел: история и «Женское Письмо».....117

CONTENT

THEORY OF LITERATURE AND LANGUAGE

- Salohi Dilorom Isamiddin kizi.** Artistic synthesis of poems about love in oriental epic poetry.....8
- Turobov Jakhongir Ravkat ogli.** The problems of implementation of terms related to the transport in the process of teaching english language.....18

COMPARATIVE LITERATURE

- Yehong Zhang, Gerhard Lauer.** Introduction: Cross-cultural reading29
- Khallieva Gulnoz Iskandarovna, Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna.** Comparative literary studies: method and methodology.....40
- Sonja Stojmenska-Elzeser.** Comparative Literature, (Comparative) Cultural Studies, Aesthetic Education, and the Humanities.....58

WORLD LITERATURE

- Mukhammedova Nilufar Eliboyevna.** Magical realism in the novels of american writers.....75
- Dilnavoz Murodova Nizamovna.** Idealized indian women in “The leatherstocking tales” by Fenimore Cooper.....83
- Kadirova Durдона Dilshadovna.** Religious, political and ecological themes in “The maddaddam” trilogy by Margaret Atwood.....97
- Sadullayeva Nazokat Kuvondik kizi.** A study of the portray of mental illness in the short story “The yellow wallpaper” by Charlotte Perkins Gilman.....108
- Nazarova Rayxon Shavkatovna.** The works of Hilary Mantel: History and "Women's writing"117



SHARQ EPIK SHE'RIYATIDA SAYYOR SEVGI QISSALARINING BADIY SINTEZI

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi

Filologiya fanlari doktori, professor
Samarqand davlat chet tillar instituti
Yaqin sharq tillari kafedrası
E-mail: dsalohiy@gmail.com
diloromopa1959@umail.uz

ANNOTATSIYA

Sharq poeziyasida epik janr taraqqiyoti xalq og'zaki ijodiyotidagi sayyor syujetli qissalarni yozma badiiy adabiyotga xos xususiyatlar bilan boyitish va poetika qonuniyatlariga moslashtirishda ko'zga tashlanadi. Bu adabiy-estetik hodisani muallifning muayyan mavzuni badiiy asar mazmuni, arxitektonikasi va o'zining badiiy uslubi vositasida tarixiy sharoit ijtimoiy muammolari bilan bog'lab tasvirlashida kuzatish mumkin. Poeziyada oldingi davrlarda shakllangan mavzu va noma'lum bo'lgan syujet chizig'ini olib kirishga urinish, yozma adabiyotdagi poemalarning xalq og'zaki ijodidagi dostonlar bilan aloqasini yanada kuchaytirishga bo'lgan intilish, badiiy asar tilining xalqchillasha borishi sharq epik she'riyatida sayyor syujetlarning badiiy sintezini yuzaga keltirdi. Maqolada bu mavzu arab sahrolarida yuzaga kelgan Layli va Majnun sevgisi qissalarining fors-tojik va turkiy dostonchilikdagi talqinlari misolida yoritiladi.

Alisher Navoiyning sharq epik poeziyasini yangilashdagi badiiy-estetik va g'oyaviy tamoyillari xamsachilikda arab va forsiy tilli xalqlar og'zaki va yozma manbalari istifodasiga borib taqaladi. Mutafakkir o'z asarlarida bevosita o'zigacha yetib kelgan arab va fors tillaridagi xalq og'zaki ijodiga va folklorga ham murojaat etadi. Shayx Nizomiy o'z adabiy muhitida birinchi dostonnavis sifatida, Alisher Navoiy esa temuriylar tamadduni davrining ijtimoiy faol ijodkori sifatida beshliklaridagi xalqona, sodda va donishmandona tafakkur ifodasiga, xalq folklorining o'lmas an'alariga katta ahamiyat berdilar. Nizomiy "Layli va Majnun" dostonida ijtimoiy foydali ma'rifiy fikrlarini pand-nasihat tarzida emas, balki xalq og'zaki ijodi va folklordan olingan badiiy timsollar vositasida ifoda etdi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sida esa "sayyor syujetlar" - xalqona hikoyat va rivoyatlarga asoslangan epizodlar ma'rifiy mazmundagi hikmatlar bilan boyitiladi, orifona ma'no kasb etadi. Ayniqsa, buyuk "nazirai benazir"ning uchinchi dostoni bo'lmish "Layli va Majnun"da shoir xamsanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygizadi".

KALIT SO'ZLAR

Epik poeziya, uslub, romantizm, hayotiylik, xalqchilik, ma'rifiy mazmun.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СИНТЕЗ ПОЭМ О ЛЮБВИ В ВОСТОЧНОЙ ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

Салохи Дилором Исамиддин кызы

*доктор филологических наук, профессор
Самаркандский государственный институт
Иностранных языков
Кафедра языков Ближнего Востока
E-mail: dsalohiy@gmail.com;
diloromopa1959@umail.uz*

АННОТАЦИЯ

Развитие эпического жанра в восточной поэзии проявляет развитие эпического жанра в восточной поэзии проявляется в обогащении «кочующих сюжетов» устного народного творчества со специфическими свойствами письменной художественной литературы и в совмещении канонам восточной поэтики. Это литературно-эстетическое событие можно проследить в сочетании автором в своем произведении темы, содержания, архитектоники и индивидуального художественного стиля с социальными проблемами исторической действительности. Интерес авторов поэм к возрождению тем и сюжетов прошлых времен, создание взаимосвязи поэм в народном творчестве с поэмами письменной литературы, проявление народности в стиле письменной литературы создаёт художественный синтез «кочующих» сюжетов в восточной эпической поэзии. Данная тематика в статье раскрывается на примере анализа старинной истории любви Лейли и Меджнуна, созданной в аравийских степях, с поэмами, написанными в персидско-таджикской и тюркской художественной литературе.

Художественно-эстетические и идейные принципы эпического творчества Алишера Наваи способствовали возобновлению многовековых традиций восточной поэзии. В своих пятирицах гениальные мыслители Востока использовали фрагменты из источников устного народного творчества и фольклора арабских и персидских народов в своеобразном творческом стиле. Низами Гянджеви как первый мастер эпического стиля в своей литературной среде, Алишер Наваи как видный творческий и государственный деятель эпохи тимуридского ренессанса в своих творениях обращались к мудрому народному мышлению, немеркнущим традициям фольклора. Шейх Низами в своей поэме «Лейли и Меджнун» обращался непосредственно к фольклору или созданиям устного народного творчества для выражения своих социально полезных мыслей. Свою идейную замысль он чаще выражал не наставлениями, а живыми эпизодами и образами из народного творчества.

В третьей поэме «Хамсы» Алишера Наваи занимают важное место мистические идеи, где эпизоды из устного народного творчества и притчи, отрывки с образами животных, элементов из флоры и фауны обогащаются духовным содержанием. Великий мыслитель в поэме «Лейли и Меджнун», творчески используя художественные традиции своих наставников, придаёт новый романтико-реалистический дух.

ся в обогащении «кочующих сюжетов» устного народного творчества со специфическими свойствами письменной художественной литературы и в

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Эпическая поэзия, стиль, романтизм, реальность, народность, духовно-нравственное содержание.

совмещении канонам восточной поэтики. Это литературно-эстетическое событие можно проследить в сочетании автором в своем произведении темы, содержания, архитектоники и индивидуального художественного стиля с социальными проблемами исторической действительности. Интерес авторов поэм к возрождению тем и сюжетов прошлых времен, создание взаимосвязи поэм в народном творчестве с поэмами письменной литературы, проявление народности в стиле письменной литературы создаёт художественный синтез «кочующих» сюжетов в восточной эпической поэзии. Данная тематика в статье раскрывается на примере анализа старинной истории любви Лейли и Меджнуна, созданной в аравийских степях, с поэмами, написанными в персидско-таджикской и тюркской художественной литературе.

Художественно-эстетические и идейные принципы эпического творчества Алишера Наваи способствовали возобновлению многовековых традиций восточной поэзии. В своих пятнадцати гениальные мыслители Востока использовали фрагменты из источников устного народного творчества и фольклора арабских и персидских народов в своеобразном творческом стиле. Низами Гянджеви как первый мастер эпического стиля в своей литературной среде, Алишер Наваи как видный творческий и государственный деятель эпохи тимуридского ренессанса в своих творениях обращались к мудрому народному мышлению, немеркнущим традициям фольклора. Шейх Низами в своей поэме «Лейли и Меджнун» обращался непосредственно к фольклору или созданиям устного народного творчества для выражения своих социально полезных мыслей. Свою идейную замысль он чаще выражал не наставлениями, а живыми эпизодами и образами из народного творчества.

В третьей поэме «Хамсы» Алишера Наваи занимают важное место мистические идеи, где эпизоды из устного народного творчества и притчи, отрывки с образами животных, элементов из флоры и фауны обогащаются духовным содержанием. Великий мыслитель в поэме «Лейли и Меджнун», творчески используя художественные традиции своих наставников, придаёт новый романтико-реалистический дух.

ARTISTIC SYNTHESIS OF POEMS ABOUT LOVE IN ORIENTAL EPIC POETRY

Salohi Dilorom Isamiddin kizi

*Doctor of Philology, Professor,
Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Department of Middle Eastern Languages
E-mail: dsalohiy@gmail.com;
diloromopa1959@umail.uz*

ABSTRACT

The development of the epic genre in oriental poetry is manifested in the enrichment of the "nomadic plots" of oral folk art with the specific properties of written fiction and in the combination of the canons of oriental poetics. This literary and aesthetic event can be traced in the combination of the author's theme, content, architectonics and individual artistic style with the social problems of historical reality in his work. The interest of the authors of poems in the revival of themes and plots of past times, the creation of a relationship between poems in folk art and poems of written literature, the manifestation of nationality in the style of written literature creates an artistic synthesis of "nomadic" plots in Eastern epic poetry. This topic is revealed in the article on the example of the analysis of the ancient history of the love of Leyli and Majnun, created in the Arabian steppes, with poems written in Persian-Tajik and Turkic literature. The artistic, aesthetic and ideological principles of Alisher Navai's epic work contributed to the renewal of the centuries-old traditions of oriental poetry. In their times, the brilliant thinkers of the East used fragments from the sources of oral folklore and folklore of the Arab and Persian peoples in a peculiar creative style. Nizami Ganjavi as the first master of the epic style in his literary environment, Alisher Navai as a prominent creative and statesman of the Timurid Renaissance era in their works turned to the wise folk thinking, the unfading traditions of folklore. Sheikh Nizami in his poem "Leyli and Majnun" turned directly to folklore or the creations of oral folklore to express his socially useful thoughts. He often expressed his ideological idea not with instructions, but with living episodes and images from folk art. In the third poem "Hamsa" by Alisher Navai, mystical ideas occupy an important place, where episodes from oral folklore and parables, excerpts with images of animals, elements from flora and fauna are enriched with spiritual content. The great thinker in the poem "Leyli and Majnun", creatively using the artistic traditions of his mentors, gives a new romantic-realistic spirit.

KEYWORDS

Epic poetry, style, romanticism, reality, nationality, spiritual and moral content.

KIRISH

Qadim zamonlarda yaratilgan epik poeziya namunalari, xususan sevgi qissalari sharq xalqlari og'zaki ijodi namunalari ta'sirida yuzaga kelganligi boisidan asosan tarixiy shaxslarga ba'g'iahlanadi. Bunday epik asarlar monosyujetli bo'lib, ularda voqealarning ko'lami uncha keng emas va shunga bog'liq ravishda qahramonlar miqdori ham chegaralangan. Qissanavislik va dostonnavislik rivojlana borgani sari yangi xarakterdagi, ya'ni ishqiy-romantik va liro-epik tarzda asarlar ham paydo

bo'la borib, ularda insonning ichki kechinmalari tasviriga e'tibor berila boshlandi. Bu hol poemachilikning ijtimoiy hayot va inson faoliyatiga tobora yaqinlasha borayotganini, insonning jamiyat va ijtimoiy tabaqalar, maishiy va axloqiy muammolar kabi muhim masalalarni yoritayotganligini, badiiy yetuk asarlar yaratish ustida tobora ko'proq shug'ullanayotganligini ko'rsatadi. "Badiiy obrazlarning konkretlasha borishi, ya'ni inson xarakterining ko'rinishi hamda didaktizmdan psixologik tasvir tomon qadam tashlanishi poemachilikda hayot va inson taqdiri chuqurroq ochilayotganiga yorqin dalildir", - deb yozadi akademik B. Valixo'jayev. (Valixo'jayev B., 2023,18)

Poemachilikning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda o'zbek mumtoz adabiyoti, jumladan epik poeziyaning boshqa xalqlar adabiyoti – arab, hind, xususan fors-tojik adabiyoti bilan hamkorligi yanada kuchayadi. Bu hol ozarbayjon adabiyotiga bo'lgan munosabatda ochiq-oydin ko'rinadi. O'zbek poemachiligining rivojlanish jarayonida ozarbayjon epik poeziyasi, xususan Nizomiy Gangaviy "Xamsa" siga bo'lgan qiziqish tobora kuchaya borib, undan ilhomlanib asarlar yozish yoki uning dostonlarini ijodiy tarjima qilish hodisasi avj oldi.

Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti davrida epik poeziya ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning, xalq orzu-istagiga muvofiq mazmunning talabiga ko'ra shaklan takomillashdi, g'oyaviy jihatdan zamonasi uchun aktual masalalarni ifoda etdi. Bu haqda yana akademik B.Valixo'jayevning fikrlarini keltiramiz: "Tasvir uslubi jihatidan o'zaro yaqin va hamohang, nomlanishi jihatidan esa bir-biriga o'xshash poemalar ham yaratilish davri, ijodkorning dunyoqarashi va adabiy-estetik prinsiplari, ko'zlagan maqsadi asosida yangi xarakter va yangi mazmun kasb etadi. Shuning uchun bir temada yozilgan poemalarda mavzuning ichki va tashqi migratsiyasi, uning evolyutsiya va dinamikasini nazarda tutish epik poeziya taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi. Bu masala, o'z navbatida, xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi hamkorlik va adabiy aloqalarni yoritishda ham muhim ahamiyatga ega." (Valixo'jayev B., 2023, 201)

ASOSIY QISM

"Layli va Majnun" - jahon adabiyotidagi eng mungli va alamli sevgi qissalaridan biridir. U Sharq o'lkalarida shu darajada keng tarqalgan va shuhrat qozonganki, shu jihatdan qaraganda hatto G'arb adabiyotining eng ajoyib yodgorliklaridan bo'lgan "Romeo va Juletta" ham u bilan tenglasha olmaydi, degan edi sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy. (Krachkovskiy I., 1988, 119)

"Layli va Majnun" qissalari uzoq tarix va tadrijiy takomilga ega. U qadimiy arab qabilalarida vujudga keldi, so'ng Eron, O'rta Osiyo, Kavkaz, Hindiston va boshqa o'lkalarga tarqaldi. Xalq og'zaki ijodida yuzaga kelgan bu sayyor syujet keyinchalik yozma adabiyotdan keng o'rin oldi, qayta-qayta ishlandi. Shayx Nizomiy Ganjaviy,

Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy kabi buyuk soʻz sanʼatkorlarining qalami bilan yanada kengroq shuhrat qozonib, jahon adabiyotining oʻlmas obidalaridan biri boʻlib qoldi.

Akademik I.Yu.Krachkovskiy koʻrsatganidek, Layli va Majnun haqidagi rivoyatlar VII asrning oxirlarida paydo boʻla boshladi. Ogʻzaki ravishda paydo boʻlgan bu rivoyatlar keyinchalik yozma asarlarga ham kiradi. Biroq hali ular kompozitsion tarqoq, oʻzaro uzviy bogʻlanmagan rivoyatlar edi. Ular mukammallashgan badiiy asar turiga kirmagan edi. (Krachkovskiy I., 1988, 164]

Layli va Majnun haqidagi rivoyatlarni hikoya qiluvchi eng eski manbalardan biri Ibn Qutayba (889 yilda vafot etgan) ning “Kitobush-sheʼr va shuaro” asaridir. Shu manbaga koʻra, Majnunning asl nomi Qays ibn Muod (boshqa variantga koʻra Qays ibn Mulavvah) boʻlib, u Bani Jaʼd qabilasidan kelib chiqqan ekan. Qays oʻz qabilasidan Layli degan qiz bilan tuya boqar ekan. Bu ikki yosh bir-birini qattiq sevib qolibti. Biroq qarshiliklar tufayli uzoq vaqt sevgilisiga erisholmagan Qays telbalanib, kishilardan yotsirab, sahroga chiqib, hayvonlar bilan doʻstlashibti.

Novfal ibn Musahhiq degan kishi Qays voqealarini eshitib, uni izlab ketadi. U Qaysni topib kiyintiradi, u bilan suhbatlashmoqchi boʻladi. Biroq bundan hech qanday foyda boʻlmaydi. Novfal Layli haqida soʻz ochadi, shundagina Qays es-hushiga keladi. Novfal Qaysga yordam berib, uni murod maqsadiga etkazmoqchi boʻladi. U Layli qabilasiga qizga sovchi boʻlib boradi, biroq uning otasidan rad javobini oladi. Majnunning otasi Laylining otasini koʻndirishga urinadi. Bu ham foyda bermaydi. Shundan soʻng Majnunning otasi bolaning ishq ehtirosi sovsin, deb Makka ziyoratiga olib boradi. Bu ham kor qilmaydi. Shu orada Laylini boshqa bir kishiga beradilar. Buni eshitgan Qays tamomila es-hushidan ogʻib qoladi. U yana sahroga chiqib ketib, vahshiy hayvonlar bilan birga yashaydi. Telbaligiga qaramay, Qays Layli haqida chiroyli qoʻshiqlar toʻqiydi, hatto bir yigit bu qoʻshiqlarni yozib ham oladi. U Qays uchun maʼlum bir joyga ovqat olib kelib qoʻyar, Qays ochiqqanida kelib, ovqatdan eb ketar edi. Nihoyat Qays oʻsha joyga kelmay qoʻyipti. Uchinchi kuni kishilar uni izlay boshlaptilar va toshloqda uning murdasini topibtilar. Shunga yaqin rivoyat Abul Faroj al-Isfahoniy (897-967) tomonidan ham hikoya qilinadi. Abul Faroj shu mavzudagi ogʻzaki va yozma manbalarni sharhlaydi, bir necha yangi hikoyatlar ham keltiradi. Shunday hikoyatlardan birida aytilishicha, Majnun uchun Laylidan koʻra goʻzalroq hech kim va hech narsa yoʻq ekan. Biroq keyinchalik togʻ hayvonlaridan boʻlmish kiyik unga Layli goʻzalligini eslatuvchi bir ramz boʻlib qolipti. Kunlardan bir kun bir boʻrining bir kiyikka tashlanib, uni yorganini koʻrgan Majnun qattiq gʻazablanibti va u ham jon-jahdi bilan tashlanib, boʻrini oʻldiribti. Yana bir kuni Majnun ikki ovchining bir kiyikni tutib ketayotganlarini koʻribti. U ovchilarga yalinib-yolvorib, ularga qoʻy berib, kiyikni ozod etipti.

Abul Faroj Majnun shaxsiyati haqida ham ma'lumotlar beradi. Ayrim manbalarga ko'ra bir emas, bir nechta Majnun o'tgan bo'lsa, boshqa manbalarga ko'ra aslida Majnun degan kishi o'tmagan. Umaviylar sulolasidan chiqqan bir yigit o'z qarindoshlaridan birini sevib qoladi va unga atab she'rlar yozadi. Ammo sevgi ehtiroslarining oshkor bo'lganidan xijolat chekib, Majnun haqidagi rivoyatni o'ylab chiqaradi. Boshqa manbalarda ham shunday rivoyatlar bor.

Majnun tarixiy shaxsmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'ninchi asrning oxirlarida arab adabiyotida Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlar va turli rivoyatlar paydo bo'la boshlaganini ko'ramiz. XI asrda Abu Bakr al-Volibiy degan kishi Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlarni devon qilib tuzadi, ularga sharhlar yozadi va she'rlarni Majnun haqidagi rivoyatlar syujetiga kiritadi. Bu asar Majnun haqidagi bir qissa tusini oladi. Abu Bakr al-Volibiy qissasida avvalgi rivoyatlarning mazmuni deyarli saqlanib qolgan. Unda faqat ayrim kichik o'zgarish va yangi epizodlar bor. Masalan, qadimgi rivoyatlarda Layli va Majnun tuya boqib yurganlarida bir-birlarini sevib qolishsa, bu qissada qo'shimcha ravishda Majnun qadimgi rivoyatlarni hikoya qilib berish bilan Laylini o'ziga maftun etadi, deyiladi. Qiz va yigitning sevishganini eshitgan Laylining otasi Sultonga shikoyat qiladi, shundan so'ng Sulton Majnunni qattiq ta'qib etadi. Majnun ham bu qissada birmuncha boshqacharoq tarzda bayon qilinadi. Majnun ikki suvoriydan Laylining o'lganini eshitadi, ulardan Laylining qabriga olib borishni iltimos qiladi. Qabr boshiga borgach, o'zini uning ustiga tashlaydi, shu bo'yi uzoq yotib qoladi va jon taslim qiladi. Qissada boshqa yangiliklar ham bor.

Majnun she'rlari, Layli va Majnun rivoyatlari va ayniqsa, Abu Bakr al-Volibiy tuzgan devon-qissa Sharq o'lkalarida keng tarqalgan va shuhrat qozongan edi. XII asrda Kichik Osiydan – Ganja shahridan chiqqan yirik mutafakkir alloma Shayx Nizomiy Ganjaviy o'z ijodida qadimgi rivoyatlar bilan kifoyalanib qolmadi. U Layli va Majnunlarning fojiali sarguzashtini o'zi yashagan muhit aspektida qaytadan ishlab chiqti, qissani g'oyaviy-badiiy yuksak va mukammal bir doston darajasiga ko'tardi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o'tgach, hindistonlik mashhur shoir Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299 yilda yaratilgan bo'lib, "Majnun va Layli" deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o'z salafidan o'zgachalikka intilganligini ta'kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval "Majnun va Layli" shaklida ommalashganligiga e'tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion tuzilishini asosan saqlab qolgani holda, uning syujetiga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi. Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusidagi dostonga javob yozish an'anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim

Suhayliy, Abdulloh Xotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham ushbu mavzuda asar yozgan.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo'lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi. U xamsanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygizadi".

Alisher Navoiy bu dostonda o'z ideallarining fojiga uchrashi sabablarini ochib beradi. Dostonda, go'yoki, boshdan oxirgacha shoirning hazin yig'isi eshitiladi:

Bir na'shqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelinu o'luk kuyovni...
So'ngin nechakim uzattim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir.

Doston voqealari "Layli va Majnun" sarguzashti boshlanmasdan oldin "Ul tun muhabbati ta'rifida..." deb nomlangan bob bilan boshlanadi. Layli va Majnun qissasi nihoyasiga yetgach esa, "Ishq ta'rifidakim" sarlavhasi bilan bir bob keltiriladi. "Bu bob diqqat bilan o'qilganda, shu narsa ayon bo'ladiki, - deb yozadi B. Valixo'jayev, - unda Alisher Navoiy biz javobini topishga intilgan savollarga ham javob beradi, doston va uning timsollarini tahlil qilish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni ham bayon etadi". (Valixo'jayev B., 2002, 44)

Alisher Navoiy har bir dostonini boshlar ekan, dostonninig vaznini ham uning mavzuiga bog'lab tanlaydi, asar boshlanishidagi voqea tasviri bilan ham o'quvchini tayyorlaydi. Shoir o'zining ideallariga hamisha umid bilan qaraydi, ularning mag'lubiyatga uchrashini istamaydi.

Majnunning Layliga bo'lgan muhabbatini tarannum etar ekan, shoir bu ishqning avvalo oddiy insinga – Yer go'zaliga nisbatan bo'lgan majoziydan Mutlaq Go'zallik - Alloh taologa nisbatan bo'lgan haqiqiy ishq darajasiga ko'tarilishini yoritib beradi:

Bu ishqki, baxti komrondin,
Xoli bo'lmay zamone ondin.
Garchi iki nav' o'tti rozi,
Avvalg'ini anglag'il majoziy.
Kim durru gudozu so'z birla,
Yuz sho'layi jonfiro'z birla,
Majnung'a biri bo'lub musallam,
Bahra topti ikinchisidin ham.

Alisher Navoiy nazdida Majnun insoniy, avom ishq – majoziy ishqda kamolotga erishib, haqiqiy ishq maqomiga yetgan orif insonlar timsolidir.

Layli esa Majnun uchun Buyuk Yaratuvchi kamolotini o'zida namoyon etgan ko'zgu. Shu bois Majnun jismoniy xilqat bo'lmish Laylini – ko'zguni emas, balki ko'zgu ichidagi mohiyatni sevadi.

Akademik B. Valixo'jayev "Layli va Majnun" dostonining xususiy g'oyaviy-badiiy jihatlari haqida fikr yuritir ekan, jumladan shunday deydi: "Agar diqqat bilan qaralsa, bu ikki dostonni ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" – B.V.) bir-biriga yaqinlashtiruvchi mushtarak mavzu – komil inson mavzusidir. Bu mavzu ularni bir-biriga bog'labgina qolmaydi, balki mavzuning har bir dostonida o'ziga xos tarzda yoritilishi ularning uslubiy o'ziga xosliklarini namoyon etadi, ya'ni "Farhod va Shirin"da bu mavzu ijtimoiy faollik ko'lamida yoritilsa, "Layli va Majnun"da esa asosan ishq maydonidagi ichki kechinmalar, ruhiy holatlarning chuqur tasviri orqali nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi". (Valixo'jayev B., 2002, 49)

"Layli va Majnun" dostoni inson muhabbati ifodasining eng ajoyib namunasi bo'lib, Alisher Navoiy badiiy mahoratining yangi qirralarini o'zida namoyish etadi.

XULOSA

Shunday qilib, sharq mualliflari tomonidan yaratilgan epic asarlar shakl, mazmun va mavzu jihatidan migratsiyalashgan bo'lsalar-da, ushbu asarlarning aksariyati shoirlar qalami ostida original asar sifatida yuzaga chiqqan va zohiran an'anaviydek ko'ringan mavzular yangi mazmun kasb etib, badiiy sintezlashgan. Bunday asarlarning ahamiyatini belgilashda professor Ye.E. Bertelsning fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: "O'zlashtirish faktining o'zi emas, balki uning sabablari va, xususan, yangi zaminda o'zgarishlarga uchraganini aniqlash nihoyat qiziqarlidir". (Бертельс Е.Э., 1965, 15) Ushbu fikrlarni akademik B. Valixo'jayev aniqroq sharhlaydi: "Istalgan jamiyat va ideal qahramon tasviriga bag'ishlangan poemalarda esa o'sha muhit hodisa-voqealariga bo'lgan munosabat bivosita ifodalanib, ularda badiiy tasvir, badiiy obraz yaratish orqali hayot to'g'risida muhokama va mulohaza yiritish, ya'ni badiiy umumlashtirish qonuniyatiga rioya qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bunday tipdagi poemalarni yaratishda shoirlar romantic tasvir uslubiga murojaat etib, undan real hayot hodisa-voq'ealarini tasvirlashda mahorat bilan foydalandilar. Mazkur poemalarda romantic tasvir uslubi esa realistic tasvir elementlari bilan qorishib ketadi". (Valixo'jayev B., 2023, 204)

Demak, sharq epic poeziyasining qadimiy tarixga ega bo'lgan taraqqiyot jarayoni katta migratsion evolyutsiyani boshdan kechirib, davrlar va zamonlar talabi bilan shakl, mazmun va mavzu hududlari nuqtai nazaridan badiiy sintezlashdi va buning natijasida o'ziga xos uslub va xarakterda rivojlana bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 tomlik, 9-t. – Toshkent: “Fan”, 1992.
2. Botir Valixo’jayev. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Zilolbuloq, 2023.
3. Valixo’jayev B. O’zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. – Samarqand: 2002.
4. Gulnoz Xalliyeva. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: “Akademnashr”, 2020.
5. Mammedova Esmetxanim. NIZAMI GENJEVI YARADICHILIGI UZRE FILOLOJI TEDQIQLER. – Baki: “Elm ve tehsil”, 2022.
6. Mallaev N. Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma’rifiy tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: “O’QITUVChI”, 1985.
7. Dilnavoz Yusupova. O’zbek mumtoz va milliy o’yg’onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: “TAMADDUN”, 2016.
8. Бертельс Е.Э. Избранные труды. «Наваи и Джами». – М: Наука, 1965.
9. Бертельс Е.Э. К вопросу о филологической основе изучения восточных памятников, «Советское востоковедение», 1955. № 3, стр.15.
10. Mamatqulova X.A. Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Julietta” asarlarining qiyosiy tadqiqi. – NDA, Samarqand, 2009.
11. Проблемы исторической поэтики литератур Востока. - М.: Наука, 1988. 312 с.
12. Проблемы восточного стихосложения. - М.: Наука, 1973. 184 б.

REFERENCES

1. Navoiy, Alisher. (1992) MAT, 20 Volumes, 9th Volume. Tashkent "Fan".
2. Valikhojhayev, Batir. (2023) Selected works. 3 volumes. Tashkent: Zilalbulok.
3. Valikhojhayev B. (2002) History of Uzbek literature. Part 2. Samarkand.
4. Khalliyeva, Gulnoz. (2020) Comparative literary studies. Tashkent. "Akademnashr".
5. Mammedova, Esmethanim. (2022) Philological studies on the creation of nizami genjevi. Baku. "Science and education".
6. Mallaev N. (1985) Heritage of Nizami Ganjavi and its educational value. Tashkent: "O’QITUVChI".
7. Yusupova, Dilnavoz. (2016) Uzbek classical and national renaissance literature (Alisher Navoi period). Tashkent. "TAMADDUN".
8. Bertels E.E. (1965) Izbrannye trudy. "Navai i Jami". Moscow. Nauka.
9. Bertels E.E. (1955) K voprosu o filologicheskoy osnove izucheniya vostochnyx pamyatnikov, "Sovetskoe vostokovedenie", No. 3, p.15.
10. Mamatkulova X.A. (2009) A comparative study of Navoi's "Layli and Majnun" and Shakespeare's "Romeo and Juliet". NDA, Samarkand.
11. Problemy istoricheskoy poetiki literatur Vostoka. (1988) Moscow. Nauka. p.312.
12. Problemy vostochnogo stikhoslozheniya.(1973) M.: Nauka. p.184.



INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA TRANSPORT SOHASIGA OID TERMINLARNI TADBIQ ETISH USULLARI

Turobov Jaxongir Ravkat o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

jahongirturobov@mail.ru

0009-0008-4619-2868

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo'lg'usi transport mutaxassislari tomonidan ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida temir yo'l sohasiga oid terminlar bilan ishlash tartibi tahlil etilgan. Temir yo'l sohasiga oid terminlarning tasnifi va uning qo'llanilish tartibi yoritib berilgan. Ingliz tili temir yo'l terminologiyasi lingvistik nuqtai nazardan til leksikasining bir qismini tashkil qilib mazmun va struktur xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chet tili o'qitish metodikasi lingvodidaktikaning ajralmas qismi bo'lib, terminlarni o'qitishda ularning lingvistik xususiyatlarining ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish bo'yicha xorijda hamda O'zbekistonda olib borilgan izlanishlar tahlilga tortilgan. Tahlil natijalari asosida yakuniy xulosalarga kelingan. Asosan, cohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi O'zbek olimlari H. Paluanova, O. Axmedov va D. Kadirbekova ishlarida chuqur o'rganilgan bo'lsa, Rus olimlaridan V. Leychik, L. Kгыsin va G. Vinokurlarning tadqiqotlari ishda nazariy asos vazifasini bajargan. Ilmiy va nazariy jihatdan o'rganilgan adabiyotlar tahlili asosida chiqarilgan xulosalar temir yo'llari sohasiga oid terminlarning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi leksik variantlarini keltirish orqali asoslangan. Shuningdek, maqolada tyerminlarning morfologik tuzilishi va semantik ma'nolari jihatidan qo'llanilishi hamda ularni umumiy yasash qonuniyatlariga ko'ra farqlash qonuniyatlari o'z aksini topgan. Termin yasash usullariga ko'ra, temir yo'l sohasida qo'llaniladigan terminlarni tasniflash muammosiga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, sohaga oid terminlarni tasniflashning asosiy mezonlari sanab o'tilgan va bu ishning nazariy qiymatini oshirgan. Temir yo'l sohasidagi bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy kompetansiyalari orasida muhum ahamiyat kasb etgan jihatlar eslatib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR

Termin xususiyati; leksik birlik; metodika; didaktika; leksika; komponent; texnologiya; chet tili; ingliz tili.

ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСПОРТНЫМИ ПУТЯМИ, В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Туробов Жахонгир Равкат ўгли

Узбекского Государственного университета

мировых языков

Ташкент, Узбекистон

jahongirturobov@mail.ru

0009-0008-4619-2868

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В следующей статье рассматриваются проблемы преподавания терминов, относящихся к сфере железных дорог, для будущих специалистов. Более того, классификация и применение терминов были предложены в статье. Железнодорожные термины отличаются от других лингвистических единиц из-за семантических и структурных особенностей. Методика преподавания иностранных языков считается частью лингводидактики. Статья дает читателю достаточную информацию о сущности языковой особенности термина в процессе занятий. Проанализированы исследования в области преподавания английского языка для конкретных целей, предпринимаемые за рубежом и в Узбекистане. По результатам анализа сделаны выводы. Лингвистическим исследованием отраслевых терминов занимались узбекские ученые, такие как работы Х. Палуанова, О. Ахмедов и Д. Кадырбекова глубоко изучены, исследования российских ученых, такие как В. Лейчика, Л. Крысина и Г. Винокура послужили теоретической основой для данного дела. Выводы, сделанные из анализа научной и теоретической литературы, основаны на лексических версиях терминов в железнодорожном секторе на узбекском, русском и английском языках. В статье также описывается морфологическая структура терминов и их смысловые значения, а также правила дифференциации по способам словообразования. Выделена проблема классификации терминов, используемых в железнодорожной отрасли, и перечислены основные критерии классификации терминов в железнодорожном секторе, что повышает теоретическую ценность работы. В статье упоминаются важные аспекты профессиональной компетентности будущих железнодорожников.</p>	<p>Особенности терминов; лексическая единица; методология; дидактика; лексика; компонент; технология; иностранный язык; английский язык.</p>

THE PROBLEMS OF IMPLEMENTATION OF TERMS RELATED TO THE TRANSPORT IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Turobov Jakhongir Ravkat o'g'li

Uzbek State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

jahongirturobov@mail.ru

[0009-0008-4619-2868](tel:0009-0008-4619-2868)

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>The following article deals with the problems of teaching terms related to the sphere of railways for the future specialists. The content of the work includes the analyses of process of above mentioned ESP classes. Moreover, the classification and the application of the terms have been mentioned in the article. The railway terms differ from the other linguistics units due to the semantic and structural peculiarities. The methodology teaching foreign languages is considered to be a part of the lingvodidactics. The article provides the reader with the sufficient information about the essence of the linguistic feature of the term during the process of the classes. Analysis of the researches in the sphere of teaching English for the specific purposes undertaken in abroad and in Uzbekistan have been analyzed. Based on the results of the analysis, conclusions have been made. Linguistic research of branch terms was engaged in Uzbek scholars as H. Paluanova, O. Akhmedov and D. Kadyrbekova's works are studied deeply, and Russian scientists as V. Leichik, L. Krysin and G Vinokur's researches served as the theoretical basis in the case. The conclusions drawn from the analysis of the scientific and theoretical literature are based on the lexical versions of terms in the railway sector in Uzbek, Russian and English. The article also describes the morphological structure of the terms and their semantic meanings, as well as the rules of differentiation according to the ways of word-formation. The problem of classification of terms used in the railway industry is highlighted, and the main criteria for classifying terms in the railway sector are listed, which increases the theoretical value of the work. The important aspects of professional competence of future railroad professionals are mentioned in the article.</p>	<p>Peculiarities of terms; lexical unit; methodology; didactics; lexica; component; technology; foreign language; English language.</p>

KIRISH

Jahon tilshunosligida XIX asrda yuzaga kelgan ilmiy-falsafiy qiziqish maxsus terminologik ma'no kasb etgan o'ziga xos til birligi —terminni o'rganishga nisbatan e'tiborni oshirdi, buning sabablari terminlarning yasalishi va ekstralingvistik omillarning terminologiyaga ta'siri bilan uzviy bog'liqligi edi. Temir yo'l sohasi vakillari tillarning zamonaviy terminologik bazalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda bevosita temir yo'l sohasi uchun bir necha xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqazo etadi. Shuning uchun temir yo'l sohasida qo'llaniladigan terminlarning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi.

Malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda o'quv jarayoni yetakchi o'ringa ega. O'qitishning mohiyati asli bo'lg'usi temir yo'l mutaxassislarining bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va muayyan dunyoqarashini xosil qilishga qaratilgan faol o'quv jarayonini samarali tashkillashtirishdan iborat. O'qitish jarayoni talaba va ta'lim beruvchining ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan, tashkillashtirilgan hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, uning mohiyati talabalarning bilimlarni egallash, qobiliyatlarini rivojlantirish hamda qarashlarini shakllantirishni stimullash va tashkillashtirishga qaratilgan jadal o'quv faoliyatidan iborat.

Texnik taraqqiyotning jadal o'sishi natijaksida unga hamoxang tarzda sohaviy terminologiya ham o'ziga xos tarzda shakllanib bormoqda. Bu o'z navbatida sohaviy terminologiya, uni chet tillarda o'qitish, turli tillardagi qiyosiy tatbiqi hamda mutaxassis tilini rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz sohaviy tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar oqimini jadallashtirmoqda. Bu hol soha egalarining o'z kasbiga oid termin va tushunchalarning asl mazmun-mohiyati to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishlarini taqazo etmoqda. Ayniqsa temir yo'l sohasiga oid terminlarni tarjima qilish texnikasi, temir yo'l sohasiga oid terminlarning semantik xususiyatlari, turli tillarda temir yo'l sohasiga oid terminologiyaning tipologik tasnifini qiyoslash, lingvistik tahlili va tarjima muammolarini o'qitish, affiks va prefikslar yordamida temir yo'l sohasiga oid terminlarni yasash va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Terminlar insonning fikrlash faoliyati mahsuli, tamoyillar, qoidalar, qonunlar, nazariyalar shakllanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida fan va texnika tilining muhim tarkibiy qismi. Terminlar nafaqat tilshunoslar, balki turli soha mutaxassislar uchun ham foydalanish manbaidir (Paluanova X. 2016, 12).

ASOSIY QISM

Terminologiya yo'nalishiga oid faoliyat natijalarini keng qo'llanishi terminologik sohaning keyingi yo'nalishlarini ochadi, yangi maqsad va vazifalarni belgilashga imkon beradi. Ilmiy adabiyotlarda termin so'ziga turlicha ta'riflar keltirib o'tilgan masalan, L. Krysin terminga quyidagicha ta'rif beradi: "*Termin*" leksemasi lotincha "terminus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "oxiri", "chek", "chegara", "tugash" degan ma'nolarni bildiradi" (Krysin L.P., 1998, 5). V.N. Shevchuk fikricha: Tyermin bu — so'z bo'lib, o'rta asrlarda "aniqlash", "ifodalash" degan ma'nolarni ifodalagan (Shevchuk V.N., 1983, 198). P. Nishonov, "Termin — tuzilishiga ko'ra so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir" (Nishonov

P., 2009, 26) deya ta'kidlaydi. Terminlarning ko'plab ilmiy tasnif va tavsiflari mavjud bo'lib, ular tushunchalarni ta'riflashning turli aspektlar nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Bu tasniflarga terminlarni hosil qilish xususiyatlari, ularni tizimlashtirish, muayyan turlarga ajratish asosida lisoniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

“Terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo'lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi. Zero, terminlar va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir” (Ahmedov O.S., 2016, 21). Shunday qilib, terminshunoslik bu til leksikasini shakllantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Terminologik tizimlarning shakllanishi ya'ni temir yo'l sohasiga oid terminologiya tilning ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari asosida rivojlanib bormoqda. Boshqa soha terminlaridan tyemir yo'l sohasiga oid terminlar maxsus terminarga boyligi va qo'llanishdagi an'anaviylik, shuningdek, ayrim sintaktik iboralarni ishlatilishi bilan farqlanadi. Tyemir yo'l sohasiga oid terminlarning o'ziga xos xususiyatlari terminologik nominatsiyalar, lingvistik xususiyatlari, terminologik leksikaning talablari asosida aniqlandi.

Terminlarning tuzilishi va qo'llanilishi ularni umumiy yasash qonuniyatlarini farqlash imkonini berib, tyermin yasash usullariga ko'ra, temir yo'l sohasida qo'llaniladigan terminlarni tasniflashda quyidagi asosiy mezonlar mavjud:

- 1) fan yoki jamiyatning ijtimoiy faoliyat sohalariga ko'ra tasniflash;
- 2) katta terminologik sistema ichidagi kichik sistemalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tasniflash.
- 3) terminlar ifodalaydigan tushunchalarga ko'ra tasniflash;
- 4) termin strukturasi ko'ra tasniflash;
- 5) termin yasash usullariga ko'ra tasniflash;
- 6) asl terminlarga ko'ra;
- 7) o'zlashma terminlarga ko'ra;
- 8) gibrid terminlarga ko'ra.

Tillarning zamonaviy terminologik bazalari asl milliy va o'zlashma terminlardan tarkib topadi. Qo'llanish chastotasiga ko'ra temir yo'l sohasida interterminlar asl milliy terminlar bilan parallel holda qo'llaniladi, aksariyat hollarda, bu terminlar hatto yetakchilik qilmoqda.

Zamonaviy ta'lim nazariyasida o'qitish jarayoning samarali amalga oshirilishi bo'lg'usi temir yo'l mutaxassislarining kasbiy kompetansiyasini takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan (Krysin L.P., 1998, 5).

Temir yo'l sohasidagi bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy kompetansiyalari orasida muhim ahamiyat kasb etgan jihatlar:

- tyemir yo‘l sohasidagi terminlarni yoddan bilishi;
- tyemir yo‘l sohasidagi terminlarning kontekstual ma‘nosini tushunishi;
- tyemir yo‘l sohasidagi terminlarni mohirlik bilan qo‘llash usullarini o‘rganishi;
- tyemir yo‘l sohasidagi terminlarni qo‘llashda yuqori nutq mahoratiga egaligi.

Bo‘lg‘usi temir yo‘l mutaxassislarida ushbu xususiyatlarning shakllanishida temir yo‘l sohasidagi terminlarning gnoseologik tarkibini o‘rganish yetakchi omil xisoblanadi. “Zamonamiz ta‘lim tizimining asosida aynan rejalashtirilgan, hamkorlikdagi, natijaga qaratilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat namoyon bo‘ladi. Ta‘limning asosiy vazifalaridan biri ta‘lim oluvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlar vositasida rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berish kiradi” (Leont'ev A.N., 2000, 4).

Til va nutq asosan to‘rt yarus: fonetika-fonologiya, morfologiya, leksikologiya va sintaksisdan tashkil topadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda morfologiya va sintaksis yaruslari bir atama bilan —grammatika deb ataladi (1, 42).

Kasbiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichida bo‘lg‘usi mutaxassislar temir yo‘l sohasidagi terminlarning eng asosiy xususiyatlari bilan tanishtirilib, boshqa sohaviy terminlardan farqli jihatlari va o‘zaro aloqadorligi o‘rgatiladi. O‘quv jarayonida tyemir yo‘l sohasidagi terminlarning asosiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan izohli lug‘atlarning qo‘llanilishi kasbiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda yetakchi o‘rin egallaydi. Temir yo‘l sohasi terminlari terminologik tizim tarkibiga kirib, soha terminlari: aniq bir soha yo‘nalishi va lingvistik kompetensiyalarini o‘zida aks ettiradi.

Shuningdek, temir yo‘l sohasiga oid terminlar tizimli xususiyatga ega bo‘lib, iyerarxik munosabatlarni, ya‘ni, murakkab elementlardan oddiy elementlar vujudga keltiradi, hamda paradigmatic-sintagmatik munosabatlarda boshqa soha terminlari bilan munosabatlarga kirishadi. Masalan: *rejim, tizim, shpal, aravacha (telejka), signal, berma, konteyner, manyovr*.

O‘quv jarayonida temir yo‘l sohasiga oid terminlarni to‘g‘ri talaffuz qilish qilish. Masalan: Bogie [bōgē] – arava, compartment [kəmpa:tm(ə)nt] – kupe, freight [freit] – yuk , passenger [pasɪndʒə] – passajir, guard [gɑ:d] – provodnik, foreman [fɔ:mən] – brigadir va shu kabi terminlarni eslab qolishga erishishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirib, sohaga oid terminlar talaffuzini o‘zlashtirish mazkur terminlarni bilish, amalda qo‘llash, to‘g‘ri tushunish va tahlil qilishni mustahkamlashga imkon beradi.

Hozirgi zamon metodikasida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish keng targ‘ib etilib unda, o‘qitishning asosiy g‘oyasi bu o‘rganish usullari hisoblangan eshitib, ko‘rib va

